Haydovchi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60510100
2023 yil 09 22

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2023 yil “__”_____

BIOLOGYA O’QITISH METODIKASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500000 – Tabiiy fanlar
Ta’lim sohasi:	510000- Biologik va turdosh fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60510100 – Biologiya (turlari bo’yicha)

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
BUMB706	2023-2024	6	6
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		5

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami soat
1.	Biologiya o’qitish metodikasi	86	94	180

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad - fan erishgan dalil va qonuniyatlar to’g’risidagi ma’lumotlarni o’quvchilarga yetkazish. Maktab biologiyasini o’qitishda biologiya, agronomiya, medisina, psixologiya, pedagogika fanlari erishgan yutuqlar hisobga olinadi. O’qitishda nazariyaning amaliyot bilan bog’lanishi o’rgatiladi, politexnika ta’limining elementlari amalga oshiriladi. Talabalar ushbu kursni to’la o’zlashtirishi uchun metodikaning ilmiy asoslari, ilmiy tadqiqot manbalarini yaxshi o’zlashtirgan bo’lishlari lozim. Metodika amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyani beradi, bu nazariya kuch va o’quv vaqtini tejagan holda to’g’ri ta’lim berish imkoniyatini yaratadi. O’qituvchi talaba metodika nazariyasini egallagandagina, uning pedagogik ijodi eng yuqori samara beradi. Bu ijod ta’lim va tarbiyaning boy xazinasidagi xilma–xil metodlarni, usullarni bilib olishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Fanning vazifasi - talabalarga Biologiya o’qitish metodikasi to’g`risida tushuncha va ularni klassifikatsiyasi bo’yicha yo’nalish mutaxassisligiga mos bilim, ko’nikma va malakani o’rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish. Biologiya o’qitish metodikasi –pedagogik fan.

Biologiya o’qitish metodikasi predmeti. Biologiya o’qitish metodikasi – pedagogik fan. Fanning o’rganish obyekti, maqsadi va vazifasi. Biologiya o’qitish metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari. Biologiya o’qitish metodikasi boshqa fanlar: biologiya, pedagogika, psixologiya, filosofiya bilan bog’liqligi. Biologiya o’qitish metodikasining strukturasi: umumiy va xususiy metodikalar.

2-mavzu. Biologik ta’limning roli.

Biologik ta’limning maqsadi va vazifalari. Biologiya o’qitish shakllari. O’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar kollejlarda biologiya kurslarining islohoti. Biologiya o’qitishning asosiy didaktik tamoyillari. Biologik bilimlarni shaxs kamolotidagi ahamiyati. Biologiya o’qitishning tarbiyaviy vazifalari. Nazariy va amaliy bilimlarni tarbiya elementlari orasidagi bog’lanishi. Biologik ta’lim tuzilishining didaktik umumpedagogik prinsiplari: ilmiylik, tizimliylik, nazariya va amaliyot birligi, ta’limning faolligi, ko’rgazmaliyligi.

3-mavzu. Sharq uyg’onish davri va ta’lim-tarbiya masalalari. Jadidchilik harakatida ta’lim va tarbiya.

Abu nasr Farobiyning ta’lim-tarbiya masalalariga doir asarlari. Abu Rayxon Beruniyning tarbiya asoslariga bag’ishlangan va tayyorlangan ilmiy asarlari va uning bu masalaga qarashlari. Ibn Sinoning ta’lim - tarbiya masalalarini yechimiga qo’shgan hissasi. Jadidlar: Munavvar qori, Fitrat, Abdulla Avloniy, Shakuriylarning ta’lim va tarbiya asoslariga qo’shgan hissalari. Hozirgi zamon biologiya o’qitish metodikasidagi ishlayotgan olimlarning fanning rivojiga qo’shgan hissalari.

O’zbekiston Respublikasi olim – metodistlarning biologiya o’qitish metodikasi fanidagi yutuqlari, qilingan kashfiyotlar va metodik qo’llanmalar.

4-mavzu. Biologiya fanlarining strukturasi va biologik tushunchalarni shakllantirish.

Biologiya predmetlarining strukturasi, tuzilishi, asosiy mazmuni va bilimlar tizimi. O’rta maktab, kollej, litseylarda qo’llaniladigan darsliklar, o’quv metodik qo’llanmalar. Politexnik ta’lim. O’quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularni o’tkazish. Biologik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi. Biologik tushunchalar va ularning klassifikatsiyasi. Umumiy va xususiy tushunchalar, oddiy va murakkab tushunchalar, maxsus va lokal tushunchalar. Tushunchalarni shakllantirish etaplari. Botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, umumiy biologiya kurslarida biologik tushunchalarni shakllantirish.

5-mavzu. Biologiya o’qitish metodlari va ularning klassifikatsiyasi.

Usullar klassifikatsiyasi va ularning xilma-xilligi. O’qitish metodlarining umumiy tavsifi. Og’zaki metodlar va ularning shakllari: suhbat, tushuntirish, ma’ruza, seminar. Ushbu metodlarni qo’llashning metodik tavsiyalari. Ko’rgazmali, amaliy metodlar va ularning o’ziga xosligi. Kuzatish, tajriba va eksperimentlarni o’tkazish metodik ko’rsatmalar. Interfaol metodlar haqida tushunchalar. Mustaqil ishlash metodlari.

6-mavzu. Biologiya darslari.

Biologiya o’qitishning tashkiliy shakllari. Biologiya darslari. Fan darslarining strukturasi. Biologiyani o’qitishni rejalashtirish. O’quvchi, talabalar bilimini nazorat qilish yo’llari va shakllari. Sinfdan tashqari ishlar. Darsdan tashqari ishlar. Biologik ekskursiyalar, ularning o’ziga xosligi va o’tkazish usullari. Biologiya o’qitish shakllarining ta’lim-tarbiyaga ta’siri.

7-mavzu. Biologiyadan sinfdan tashqari ishlar. Ekskursiyalar. Sinfdan

tashqari ishlar. Darsdan tashqari ishlar. Biologik ekskursiyalar, ularning o'ziga xosligi va o'tkazish usullari. Biologiya o'qitish shakllarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri.

8-mavzu. Biologiyani o'qitishning moddiy bazasi. Biologiya kabineti, jihozlar, mikroskoplar, gerbariylar, akvarium va pitomniklar. Biologiya tajriba maydonchasining tashkil yetish va dars o'tish.

9-mavzu. Biologiyani o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash. Biologiyani o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi. Interfaol metodlar haqida tushunchalar. Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalar ahamiyati.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Maktab biologiya fanlari bo'yicha yillik va tavqimiy ish rejalarini tuzish.

2. Maktab biologiya fanlari bo'yicha tavsiya qilingan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ko'rib chiqish va tahlil etish.

3. Botanika fanining 1- qismi bo'yicha darslarni tahlil qilish. Darslarni kuzatish va tahlil etish.

4. Botanika fanining 2- qismi mavzulari bo'yicha talabalarni darsini kuzatish va tahlil etish.

5. Zoologiya fanining 1- qismi mavzular bo'yicha darslarni kuzatish va tahlil etish.

6. Zoologiya fanining 2- qismi mavzulari bo'yicha darslarni kuzatish va tahlil etish.

7. Odam va uning salomatligi fanining mavzulari bo'yicha darslarni kuzatish va tahlil etish.

8. Umumiy biologiya fanining mavzulari bo'yicha darslarni kuzatish va tahlil etish.

9 O'quvchi, talabalarning bilimlarini xolisona baholash reyting – nazorat tizimi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1.Ilg'or novator- pedagoglarning ish tajribasini o'rganish.

2.Ta'lim to'g'risidagi davlat qonunlarini va ko'rsatmalarini o'rganish.

3.Biologiya darslarida no'ananaviy usullarni qo'llash metodologiyasi.

4.Biologiyani o'qitishda texnik vositalardan foydalanish.

5.Sharqning uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiya masalalarning rivojlantirilishi.

6.Biologiya darslarida ekologik tarbiya masalalari.

7.Kasb–hunar kolleji va akademik litseylarda biologiya o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy negizi, biologiyani o'qitish usullari va shakllarini o'zlashtirish va o'z bilimini biologik materialning qayta ishlash jarayonida qo'llashini, dars, ekskursiyalarni, darsdan tashqari, sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish metodikasini ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***
- - talabalar biologiyaga oid boy materiallardan kerakligini tanlashi, fanni o'zlashtirish jarayonida talabalar yangi pedagogik texnologiyalar, biologiyani o'qitish shakllari va usullari bilan tanishib, olingan bilimlarini biologiyani o'qitishda metodik nuktayi nazardan qo'llash yo'llari bilish va foydlana olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***
- fanni o'zlashtirish jarayonidagi olingan bilimlarni pedagogik amaliyot davrida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yo'llari bilan tanishgan holda darslarni maktab dasturi bo'yicha olib boriladigan biologiya darslarida qo'llash, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni uyushtirish ekskursiyalarni to'g'ri tashkil etish, sinfdan tashqari ishlarni yo'lga kuyish, o'zlashtirish faolligini oshirish yo'llari bilan tanish va o'quv jarayonda materiallarning xilma-xilligini, o'quv va texnik vositalar yordamida fanni yoritish yo'llari bilan tanishib olish kerak va bu ishlarni uyushtirish ***malakasiga ega bo'lishi kerak..***

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- aqliy hujum;
- blits-so`rov;
- muammoli ta`lim;
- munozara;
- Venn diagrammasi.

5. **VII. Kreditni olish uchun talablar:**

	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risidagi qonuni. 2020 y. 2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish bo’yicha qonunlari, qarorlari va farmoyishlari. 3. Гофуров А.Т., Толипова Ж.О., Файзуллаев С.С., Азимов И.Т., Ахмадалиева Б. Биологияни ўқитишнинг умумий методикаси. Т.,2005, 151 б. 4. Keldiyorov X.O., Nomozova Z.B. Biologiya oq’itish uslubiyati. Toshkent: Lesson Press nashriyoti, 2019. 152 bet. 5. Педагогика. Под редакцией академика С.А.Смирнова. М., 2002. 6. Шефер И.Ф., Матчанов Б.Э. Общая методика преподавания биологии.Т.,2005. 7. Yo’ldoshev J.F.,Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari(qo’llanma).-T.: O’qituvchi nashriyoti.2004.104. 8. Хошимова М.Х. Таълим технологиялари ва педагогик махорат модули. Т.: Молия нашри. 2015. 109б. 9. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. T.: Cho'lpon, 2011. -160 b. **Qo‘shimcha adabiyotlar:** 10. Толипова Ж., Гафуров А.Т. Биология ўқитиш методикаси. Методик қўлланма. Тошкент, 2004. 11. Пономарева И. ва бошк. Биология ўқитишнинг умумий методикаси. Москва, 2003. 12. Толипова Ж.О., Гафуров А.Т. Биология таълими технологиялари. Тошкент, 2002. 13. Биология ўқитиш услубиёти. Ўқув –услубий мажмуа. Тошкент, 2011 **Axborot manbalari (saytlar):** www. ziyonet.uz; www. pedagog. uz; www. lex. uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy кengashining 2023 yil ____ avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: X.Q.Haydarov– SamDU, “Botanika” kafedrasi mudiri, biologiya fanlari doktori, professor B.S. Islamov – SamDU, “Botanika” kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi
9.	**Taqrizchilar:** Z.B. Nomozova – SamDU, “Botanika” kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi. Sh.Sh.Shernazarov– SamDVMCHBU, “Tabiiy va ilmiy fanlar” kafedrasi mudiri biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent (tashqi).

Kafedra mudiri: **X.Q. Haydarov**

Biokimyo instituti direktori: **S.X.O’roqov**

SamDU o`quv uslubiy boshqarma boshlig’i: **Sh.A. Muranov**

“Kelishilgan”
SamDU o‘quv ishlari bo’yicha prorektor:
prof. A.S. Soleyev
“___” _____2023 yil

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Botanika kafedrasida o'qitiladigan "Biologiya o'qitish metodikasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Universitetning Biokimyo instituti biologiya (turlari bo'yicha) yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga "Biologiya o'qitish metodikasi" fani ham mavjud. Biologiya o'qitish metodikasi biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgan o'quv, jarayonlari, printsiplar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur printsip va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab biologiya kursi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Bu fanda hozirgi vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida biologiya fanini o'simlik va hayvonlar morfologiyasi, anatomiyasi va sistematikasi, hujayra tuzilishi, taraqqiyot sikllari, o'simliklarni amaliy ahamiyati kabi masalalarni qamraydi.

Biologiya o'qitish metodikasi biologiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishning maqsad qilib qo'yadi. Biologiya o'qitish metodikasining asosiy vazifasi o'quvchilarga biologik o'kuv fanlar bo'yicha chuqur atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Hozirgi vaqtda universitetlarga amaliyot darslari uchun zamonaviy asbob – uskunalar keltirilmoqda, bu jihozlardan foydalanish muhim axamiyatiga ega bo'lib, ushbu fan dasturida yangi keltirilgan har bir asbob-uskunalardan foydalanish va darslarni har xil metodlar asosida mavzusi ham ko'rsatilgan. Talabalar uchun bu juda muhimdir. Chunki talabalar mustaqil ravishda amaliyotda ishlash uchun ma'lum darajada bilimga ega bshlishi va laboratoriya jihozlaridan foydalanish qobilyatiga ega bo'lishi lozim.

Ushbu fan dasturida har bir bo'limga doir ma'ruza va amaliyot mavzulari DTS talablariga mos holda kiritilgan. Bundan tashqari alabalar bilimini mustahkamlash va mustaqil ishlarni bajarishlari uchun har bir mavzu bo'yicha foydalanishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati ham berilgan bo'lib, talablarning mustaqil ravishda fanni o'zlashtirishiga yordam beradi.

Samarqand davlat universiteti Botanika kafedrasi dotsenti b.f.n.: **Z.B. Nomozova**

Sharof Rashidov nomidagi Samarkand davlat universiteti, Botanika kafedrasida o'qitiladigan "Biologiya o'qitish metodikasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Biologiya o'qitish metodikasi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy negizi, biologiyani o'qitish usullari va shakllarini o'zlashtirish va o'z bilimini biologik materialning qayta ishlash jarayonida qo'llashini, dars, ekskursiyalarni, darsdan tashqari, sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish metodikasini, talabalar biologiyaga oid boy materiallardan kerakligini tanlashi, fanni o'zlashtirish jarayonida talabalar yangi pedtexnologiyalar, biologiyani o'qitish shakllari va usullari bilan tanishib, olingan bilimlarini biologiyani o'qitishda metodik nuqtayi nazardan qo'llash yo'llari to'g'risida tushuncha beradi.

Biologiya o'qitish metodikasi maktab predmeti xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'qitish va tarbiya jarayoni tizimi hisoblanadi. U bo'lajak talabalarga biologiya bo'yicha tarbiyalovchi ta'lim jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Biologiya o'qitish metodikasi maktabda hamma biologik kurslarni o'qitishning g'oyaviy yo'nalganligini, o'qitish mazmuni bilan metodlarni birligini, o'qitish ishlarning shakllari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarini, kurslar o'rtasidagi izchilligini, biologiya o'qitish tizimini belgilovchi barcha tarbiyalovchi ta'lim elementlarining yaxlitligini va rivojlanishini ko'rib chiqadi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida har tomondan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda universitetlarga amaliyot darslari uchun zamonaviy asbob-uskunalar keltirilmoqda, bu jihozlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bhlib, ushbu fan dasturida yangi keltirilgan xar bir asbob- uskunalardan foydalanish va darslarni har xil metodlar asosida mavzusi ham ko'rsatilgan. Talabalar uchun bu juda muhimdir. Chunki talabalar mustaqil ravishda amaliyotda ishlash uchun ma'lum darajada bilimga ega bo'lishi va laboratoriya jihozlaridan tula foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Ushbu fan dasturida har bir bo'limga doir ma'ruza va amaliyot mavzulari DTS talablariga mos holda kiritilgan. Bundan tashqari, talabalar bilimini mustahkamlashi va mustaqil ishlarni bajarishlari uchun har bir mavzu bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ruyxati ham berilgan bo'lib, talabalarning mustaqil ravishda fanni o'zlashtirishiga yordam beradi.

SamDVMCHBU Tabiiy va ilmiy fanlar kafedrasi mudiri, dotsent **b.f.f.d. Shernazarov Sh. Sh.**

ning imzosini
TASDIQLAYMAN
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Xodimlar bo'limi boshlig'i